FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 81'246.2:159.9

Mirkasimova Zilola Alisherovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ingliz tili integrallashgan kursi № 1” kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TILLARARO MUNOSABATLARNING LINGVISTIK VA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bilingvizm hodisasining lingvistik, psixolingvistik va kognitiv xususiyatlari, ikki tillilikning shaxs intellektual hamda nutqiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, monolingvizm, bilingvizm va polilingvizm tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilib, bilingval kompetensiyaning tarkibiy xususiyatlari va shakllanish omillari yoritiladi. Shuningdek, bilingvallikning tarixiy ildizlari, Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida ko‘p tillilik an’analarining namoyon bo‘lishi hamda turli davrlarda ikki tillilikka nisbatan shakllangan ilmiy qarashlar tahlil etiladi. Maqolada xorijiy tilni erta yoshdan o‘rgatishning kognitiv rivojlanishga ta’siri, ona tili va ikkinchi til o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, muvozanatli bilingvallikni shakllantirishning psixolingvistik asoslariga alohida e’tibor qaratiladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida bilingvizmning bolaning kommunikativ, lingvistik va bilish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilib, ona tilining mustahkam shakllanishi ikkinchi tilni samarali o‘zlashtirish uchun muhim omil ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, monolingvizm, polilingvizm, bilingval kompetensiya, ona tili, erta yoshdan til o‘rganish, kognitiv rivojlanish, psixolingvistika, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, muvozanatli bilingvallik.

ВЛИЯНИЕ МЕЖЪЯЗЫКОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ И КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация. В статье проводится научно-теоретический анализ лингвистических, психолингвистических и когнитивных особенностей билингвизма, а также его влияния на интеллектуальное и речевое развитие личности. Раскрывается сущность понятий монолингвизма, билингвизма и полилингвизма, рассматриваются структурные характеристики билингвальной компетенции и факторы её формирования. Особое внимание уделяется историческим истокам двуязычия, традициям многоязычия в научном наследии восточных мыслителей и развитию научных взглядов на билингвизм в различные исторические периоды. Анализируются влияние раннего обучения иностранному языку на когнитивное развитие, особенности взаимодействия родного и второго языков, а также психолингвистические основы формирования сбалансированного билингвизма. На основе анализа научных источников раскрываются возможности билингвизма в развитии коммуникативной, языковой и познавательной компетенций ребёнка. Обосновывается значение сформированной речевой базы родного языка для успешного овладения вторым языком.

Ключевые слова: билингвизм, монолингвизм, полилингвизм, билингвальная компетенция, родной язык, раннее обучение иностранному языку, когнитивное развитие, психолингвистика, языковая компетенция, коммуникативная компетенция, сбалансированный билингвизм.

THE IMPACT OF INTERLINGUAL RELATIONSHIPS ON LINGUISTIC AND COGNITIVE DEVELOPMENT

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the linguistic, psycholinguistic, and cognitive dimensions of bilingualism, with particular emphasis on its influence on individuals' intellectual and language development. It explores the concepts of monolingualism, bilingualism, and multilingualism, examining the structural characteristics of bilingual competence and the factors contributing to its formation. The article also considers the historical origins of bilingualism, multilingual traditions reflected in the scholarly heritage of Eastern thinkers, and the development of academic perspectives on bilingualism throughout different historical periods. Particular attention is given to the impact of early foreign language instruction on cognitive development, the interaction between the mother tongue and a second language, and the psycholinguistic foundations of balanced bilingualism. Drawing on relevant scholarly research, the article highlights the potential of bilingualism to promote children's communicative, linguistic, and cognitive competencies. It also emphasizes the importance of a well-established foundation in the mother tongue for the successful acquisition of a second language.

Keywords: bilingualism, monolingualism, multilingualism, bilingual competence, mother tongue, early foreign language learning, cognitive development, psycholinguistics, linguistic competence, communicative competence, balanced bilingualism.

KIRISH

Til insoniyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar va tafakkur rivojining muhim vositasi hisoblanadi. Inson borliq haqidagi bilimlarni egallash, o‘z fikrini shakllantirish va boshqalarga yetkazish jarayonida tildan foydalanadi. Shu sababli bir nechta tilni bilish va ulardan turli kommunikativ vaziyatlarda foydalana olish bugungi globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi, xalqaro ta’lim va ilmiy hamkorlikning rivojlanishi shaxsdan nafaqat ona tilini, balki boshqa tillarni ham puxta o‘zlashtirishni talab qilmoqda.

Tilshunoslikda bir tillilik, ikki tillilik va ko‘p tillilik hodisalari monolingvizm, bilingvizm va polilingvizm atamalari orqali ifodalanadi. Monolingvizm bir tilni bilish va undan foydalanishni, bilingvizm ikki tilni egallash hamda kommunikativ faoliyatda qo‘llashni, polilingvizm esa bir nechta tilni bilish va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bilingvizm faqat ikki tilning grammatik va lug‘aviy birliklarini o‘zlashtirish bilangina cheklanmaydi. U shaxsning ikki xil til tizimi asosida fikrlashi, axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va turli madaniy muhitlarda muloqotga kirishishi bilan ham tavsiflanadi.

Bilingval kompetensiya shaxsning ikki tilda og‘zaki va yozma nutqni tushunish, fikr bildirish hamda kommunikativ vaziyatga mos ravishda til vositalaridan foydalanish imkoniyatini ifodalaydi. Bunda har ikki tilni mutlaq bir xil darajada egallash shart emas, chunki til bilish darajasi insonning yoshi, ijtimoiy muhiti, ta’lim sharoiti va kundalik kommunikativ ehtiyojlariga qarab farqlanishi mumkin. Muhimi, o‘zlashtirilgan tillardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish ko‘nikmasining shakllanishidir.

Ikki tillilikning shaxs rivojlanishiga ta’siri masalasi uzoq yillardan buyon tilshunoslar, psixologlar va pedagoglarning ilmiy izlanishlari markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, ona tili va ikkinchi til o‘rtasidagi munosabat, xorijiy tilni erta yoshdan o‘rgatish, ikki tilning bolaning tafakkuri va nutqiy faoliyatiga ta’siri kabi masalalar turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Shu jihatdan bilingvizmni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki shaxsning kognitiv, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida tadqiq etish muhimdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tillararo munosabatlarning lingvistik va kognitiv rivojlanishga ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish, bilingvizmning shakllanish omillarini tahlil qilish hamda ona tili va ikkinchi til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilingvizm masalasi tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika fanlarining o‘zaro tutashgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hodisaning tarixiy ildizlari Sharq ilmiy va madaniy merosida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqimiz tarixida bir nechta tilni bilish, turli tillarda ilmiy va badiiy asarlar yaratish an’anasi qadimdan mavjud bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy va Ahmad Farg‘oniy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi arab tili orqali keng tarqalgan. Bu holat o‘sha davrda ilm-fan rivojida ko‘p tillilikning muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Mahmud Zamaxshariy va Mahmud Qoshg‘ariy kabi allomalarning lug‘atshunoslik sohasidagi ishlari turli tillarning leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning fors-tojik tilida yaratgan «Devoni Foniy» asari hamda turkiy va forsiy tillarning imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan «Muhokamat ul-lug‘atayn» asari ko‘p tillilik va tillararo munosabatlarning tarixiy rivojlanishidagi muhim manbalardandir. Movarounnahr hududida o‘zbek-tojik, o‘zbek-arab va boshqa tillar o‘rtasidagi aloqalar ham ko‘p tillilikning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Keyingi davrlarda o‘zbek-rus ikki tilliligining shakllanishi va rivojlanishi ham ushbu jarayonning davomiyligini namoyon etadi.

Bilingvizmning psixologik va kognitiv xususiyatlarini o‘rganish XX asr boshlarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. D. J. Saer 1923-yilda chop etilgan tadqiqotida ikki tillilikning bolalar aqliy rivojlanishiga ta’sirini o‘rgangan va bilingv bolalarning ayrim intellektual ko‘rsatkichlari monolingv bolalarnikidan past bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan [4]. R. Pinter va S. Arsenian ham o‘z tadqiqotlarida bilingvizmning verbal intellekt hamda maktabga moslashuv bilan bog‘liqligini tahlil qilganlar [3]. Biroq mazkur davrdagi tadqiqotlarda ijtimoiy muhit, bolalarning til bilish darajasi va ta’lim sharoitlari kabi omillar yetarlicha hisobga olinmagan.

Keyingi yillarda bilingvizmga nisbatan ilmiy qarashlar o‘zgara boshladi. Xususan, Elizabeth Peal va Wallace Lambert tomonidan 1962-yilda o‘tkazilgan

tadqiqotda ingliz va fransuz tillarida so‘zlashuvchi bilingv bolalar bilan bir tilda so‘zlashuvchi bolalarning intellektual ko‘rsatkichlari taqqoslangan. Tadqiqot natijalari bilingvizmning ayrim kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini namoyon etgan [2]. Mazkur tadqiqot ikki tillilikni bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi hodisa sifatida baholashga asoslangan oldingi qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga turtki bergan.

Ellen Bialystokning bilingvizm va kognitiv rivojlanishga oid tadqiqotlari ham ushbu yo‘nalishning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Olimaning izlanishlarida ikki til bilan muntazam shug‘ullanishning diqqatni boshqarish, kognitiv moslashuvchanlik va til birliklarini ongli ravishda tahlil qilish kabi jarayonlar bilan aloqasi o‘rganilgan. Ushbu yondashuv bilingvizmning nafaqat nutqiy, balki umumiy bilish faoliyati bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligi va pedagogikasida ham nutq rivoji, ona tilini o‘zlashtirish va xorijiy tillarni o‘qitish masalalariga katta e’tibor qaratilgan. D. R. Babayeva bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini yoritib, nutqiy faoliyatni shakllantirishda izchil pedagogik yondashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi [1]. R. G‘. Xudoyqulovning tadqiqotlarida esa ingliz tilining O‘zbekistonda tarqalishi sotsiolingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilingan [6]. N. I. Jinkin nutq mexanizmlarini o‘rganish orqali inson tafakkuri va nutqiy faoliyati o‘rtasidagi uzviy aloqani asoslab bergan [7].

Shuningdek, M. Jumaeva tomonidan shved jamiyatidagi ikki tilli bolalarning til rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Ushbu qarashlarda bolaning ona tilidagi nutqiy rivojlanishiga yetarli e’tibor berish va ikkinchi tilni o‘rgatishda uning yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi qayd etiladi. Umuman, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili bilingvizmning ta’siri til bilish darajasi, ta’lim muhiti, oilaviy sharoit va til o‘rganishning boshlanish davri kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda bilingvizmning lingvistik va kognitiv rivojlanishga ta’sirini o‘rganish maqsadida nazariy-tahliliy, qiyosiy va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika sohalarida shakllangan ilmiy qarashlar tashkil etadi. Dastlab monolingvizm, bilingvizm va polilingvizm tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro farqli va umumiy jihatlari o‘rganildi. Shuningdek, bilingval kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi lingvistik hamda ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodidan foydalanib, bilingvizmga nisbatan turli tarixiy davrlarda shakllangan ilmiy qarashlar o‘zaro solishtirildi. Xususan, XX asrning dastlabki yillarida ikki tillilikning bolalar aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqidagi fikrlar keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslandi. Peal va Lambert, Saer, Pinter va Arsenian kabi olimlarning ilmiy xulosalari o‘rganilib,

bilingvizmning kognitiv rivojlanish bilan bog‘liqligi yuzasidan mavjud nazariy yondashuvlar umumlashtirildi.

Bundan tashqari, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi va mahalliy tadqiqotchilarning til o‘zlashtirish hamda nutq rivojiga oid qarashlari tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida Markaziy Osiyoda ko‘p tillilik an’analarining shakllanishi va rivojlanishi yoritildi. Tadqiqotda yangi empirik tajriba yoki so‘rovnoma o‘tkazilmadi, xulosalar mavjud ilmiy manbalar va nazariy qarashlarning tahliliga asoslandi.

NATIJALAR

O‘rganilgan ilmiy manbalar va nazariy qarashlar bilingvizmning shakllanishi murakkab lingvistik hamda psixologik jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Ikki tillilikning rivojlanishi, avvalo, shaxsning ona tilini qay darajada egallaganligi, ikkinchi til bilan qachondan boshlab tanishgani va undan qanday ijtimoiy muhitda foydalanishiga bog‘liq. Shu jihatdan bilingvizmni faqat ikki tilni bilish bilan chegaralash to‘g‘ri emas. Bunda har ikki tilning nutqiy faoliyatda qo‘llanish darajasi, ularning o‘zaro ta’siri va shaxsning kommunikativ ehtiyojlari ham muhim hisoblanadi.

Bilingvizmga oid dastlabki tadqiqotlarda ikki tillilikning bolalar intellektual rivojlanishiga salbiy ta’siri haqidagi fikrlar ustun bo‘lgan. Jumladan, D. J. Saer o‘z tadqiqotlarida ikki tilda so‘zlashuvchi bolalarning ayrim aqliy va nutqiy ko‘rsatkichlari bir tilli bolalarnikidan past bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan [4]. Shunga o‘xshash qarashlarda bolaning bir vaqtning o‘zida ikki tilni o‘zlashtirishi til birliklarining aralashib ketishi va nutqiy chalkashliklarga sabab bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq keyingi tadqiqotlar mazkur masalaga yanada kengroq yondashish zarurligini ko‘rsatdi.

Elizabeth Peal va Wallace Lambert tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilingv bolalarning ayrim kognitiv ko‘rsatkichlari monolingv bolalarnikiga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi mumkinligini aniqlashga imkon berdi [2]. Ushbu natijalar ikki tilni egallash jarayonida bolaning til birliklarini farqlash, fikrni turli vositalar orqali ifodalash va vaziyatga mos ravishda til tanlash qobiliyatlari rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bilingvizmning barcha bolalarda bir xil natija berishi haqida xulosa chiqarish to‘g‘ri emas. Chunki til o‘zlashtirish samaradorligi bolaning individual imkoniyatlari va ta’lim sharoitlariga ham bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ona tili va ikkinchi til o‘rtasidagi munosabat bilingval rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ona tilida shakllangan lug‘aviy boylik, grammatik bilim va fikrni izchil ifodalash ko‘nikmalari ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida muhim tayanch vazifasini bajaradi. Bola ona tilida tushunchalarni anglash, voqea-hodisalarni tahlil qilish va o‘z fikrini bayon etish ko‘nikmalarini egallagan sari boshqa til vositasida ham murakkab fikrlarni o‘zlashtirish imkoniyati kengayadi.

Bilingvizmning kognitiv rivojlanishga ta’siri, ayniqsa, til birliklarini qiyoslash, diqqatni boshqarish va fikrlash moslashuvchanligini rivojlantirishda namoyon

bo‘lishi mumkin. Ikki til bilan muntazam shug‘ullanish jarayonida shaxs muayyan tushunchani turli til vositalari orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning til hodisalarini kuzatish, ularni farqlash va mazmuniy jihatdan tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, bilingvizm shaxsning kommunikativ kompetensiyasini kengaytiradi. Ikki tilda muloqot qila oladigan inson turli madaniy muhit vakillari bilan aloqa o‘rnatish, axborot almashish va o‘z fikrini turli auditoriyalarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat uning ijtimoiy moslashuvi va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bilingvizmning samarali shakllanishi uchun ona tilidagi nutqiy rivojlanish, ikkinchi tilni o‘rgatishning izchilligi, tabiiy kommunikativ muhit va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Bilingvizmning lingvistik va kognitiv rivojlanishga ta’siri masalasida turli davrlarda shakllangan ilmiy qarashlarni qiyosiy o‘rganish ushbu hodisaga bir tomonlama baho berish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Dastlabki tadqiqotlarda ikki tillilikning bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta’siri ta’kidlangan bo‘lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda uning ayrim kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asoslab berildi. Mazkur farqlar, bir tomondan, tadqiqot metodlarining takomillashgani bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, bilingv bolalarning ijtimoiy va ta’limiy sharoitlari turlicha bo‘lishi bilan bog‘liq.

Bilingvizmning rivojlanishida ona tilining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bola ona tilida yetarli nutqiy tajriba to‘plashi, tushunchalarni anglash va fikrini mustaqil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishi uning keyinchalik ikkinchi tilni o‘zlashtirishiga ijobiy zamin yaratadi. Biroq bu holat xorijiy tilni faqat ona tili to‘liq o‘zlashtirilgandan keyin o‘rgatish kerak, degan qat’iy xulosani anglatmaydi. Aksincha, erta yoshdan boshlangan til ta’limi bolaning yoshiga mos metodlar, tabiiy muloqot va muntazam til amaliyoti asosida tashkil etilganda samarali bo‘lishi mumkin.

Ikki tillilik sharoitida ayrim bolalarda tillarni aralashtirib qo‘llash yoki bir tildagi so‘z o‘rniga ikkinchi tildagi birlikdan foydalanish holatlari kuzatiladi. Bunday vaziyatlarni har doim ham til rivojlanishidagi kamchilik sifatida baholash to‘g‘ri emas. Chunki ikki tilni o‘zlashtirish jarayonida tillararo ta’sir tabiiy hodisa hisoblanadi. Muhim jihat bolaning har ikki tilda muloqot qilish imkoniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish va unga yetarli nutqiy muhit yaratishdan iborat.

Shu bilan birga, muvozanatli bilingvallikni shakllantirishda oilaviy muhit, ta’lim muassasasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Oilada ona tilidan faol foydalanish, bolaga kitob o‘qib berish, suhbatlashish va uning fikrlarini erkin bayon etishiga imkon yaratish nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim jarayonida esa ikkinchi tilni o‘rgatishda faqat grammatik qoidalarni yodlatish bilan

cheklanmasdan, tinglab tushunish, savol-javob, hikoya qilish va amaliy muloqotga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bilingvizmning yana bir muhim jihati uning madaniyatlararo muloqot bilan bog‘liqligidir. Ikki tilni bilish shaxsga nafaqat yangi axborot manbalaridan foydalanish, balki boshqa xalqlarning dunyoqarashi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlarini anglash imkonini ham beradi. Bu jarayonda ona tiliga bo‘lgan hurmat va milliy o‘zlikni anglash hissini saqlab qolish muhimdir. Chunki samarali bilingval ta’lim shaxsni o‘z ona tilidan uzoqlashtirmasdan, aksincha, uning til va madaniyat borasidagi dunyoqarashini kengaytirishi lozim.

Demak, bilingvizmni rivojlantirishda asosiy e’tibor tillar o‘rtasida raqobat yuzaga keltirishga emas, balki ularning o‘zaro to‘ldiruvchi imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilishi zarur. Ona tili shaxsning milliy va madaniy o‘zligini shakllantiruvchi asos bo‘lsa, ikkinchi til uning bilim olish, xalqaro muloqotga kirishish va intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tillararo munosabatlarning lingvistik va kognitiv rivojlanishga ta’sirini o‘rganish natijasida bilingvizm shaxsning nutqiy, intellektual va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ikki tillilik faqat ikki tilning lug‘aviy va grammatik birliklarini o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmay, balki shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, qiyoslash va turli kommunikativ vaziyatlarda mustaqil fikr bildirish qobiliyatlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili bilingvizmning bolalar rivojlanishiga ta’siri haqidagi qarashlar tarix davomida o‘zgarib borganini ko‘rsatdi. Dastlab ikki tillilikning salbiy jihatlari ko‘proq ta’kidlangan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning ayrim kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berildi. Shu bilan birga, bilingvizmning samaradorligi bolaning individual xususiyatlari, til o‘rganish muhiti va ta’lim metodlariga bog‘liqligi ham e’tiborga olinishi lozim.

Ona tilida mustahkam shakllangan nutqiy asos ikkinchi tilni o‘zlashtirish uchun muhim zamin yaratadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida ona tilining rivojlanishiga e’tibor qaratish bilan birga, xorijiy tilni yoshga mos va izchil metodlar asosida o‘rgatish zarur. Bunda bolalarning tabiiy muloqotga jalb etilishi, til amaliyotining muntazam tashkil qilinishi va xatolarga o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida munosabat bildirilishi muhimdir.

Umuman olganda, muvozanatli bilingvallikni shakllantirish shaxsning tafakkur moslashuvchanligi, lingvistik va kommunikativ kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari hamda intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida ona tili va xorijiy tillarni o‘zaro uyg‘unlikda o‘rgatish, ko‘p tillilik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va milliy til qadriyatlarini asrab-avaylash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 432 b.
2. Peal E., Lambert W. The Relation of Bilingualism to Intelligence // Psychological Monographs. – 1962. – Vol. 76, No. 546. – P. 1–23.
3. Pinter R., Arsenian S. The Relation of Bilingualism to Verbal Intelligence and School Adjustment // Journal of Educational Research. – 1937. – Vol. 31. – P. 255–260.
4. Saer D.J. The Effects of Bilingualism on Intelligence // British Journal of Psychology. – 1923. – Vol. 14. – P. 25–38.
5. Salameh E.K., Nettelbladt U., Håkansson G., Gullberg B. Language Impairment in Swedish Bilingual Children // Acta Paediatrica. – Vol. 91, No. 2. – P. 229–234.
6. Xudoyqulov R.G‘. Ingliz tilining O‘zbekistonda tarqalishi (sotsiolingvistik va pragmatik jihatlari): filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – 2017. – 270 b.
7. Жинкин Н.И. Механизмы речи. – Москва: АПН, 1958. – С. 38.
8. Симонова Я.А. Раннее обучение иностранному языку // Форум молодёжной науки. – 2021. – Вып. 2, № 2. – С. 72.